TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdammovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSİYALARINING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELI.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Qudratov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IKTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



UO'K: 33.330.15

IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI

**Xashimova Salima Nigmatullayevna**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti,
“Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti” kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi
E-mail: salima.xashimova@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5766-8293

Annotatsiya. Global iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etishda iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayonida iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalashning mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi asosiy vositalar hamda mexanizmlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, global iqlim o'zgarishi, issiqxona gazlari emissiyasi, Parij bitimi, ekologiya, uglerod sig'imi, inson faoliyati.

Abstract. Decarbonizing the economy plays a crucial role in mitigating the consequences of global climate change. This article analyzes the essence, significance, and specific features of economic decarbonization in achieving sustainable development goals. It also outlines the main instruments and mechanisms that support the transition toward a low-carbon economy.

Key words: sustainable development, global climate change, greenhouse gas emissions, Paris Agreement, ecology, carbon footprint, human activity.

Аннотация. Декarbonизация экономики имеет важное значение в устранении последствий глобальных изменений климата. В статье рассмотрены сущность, значение и особенности декарбонизации экономики в контексте обеспечения устойчивого развития, а также основные инструменты и меры, направленные на реализацию данного процесса.

Ключевые слова: устойчивое развитие, глобальные изменения климата, эмиссия углекислого газа, Парижское соглашение, экология, углеродоёмкость, деятельность человека.

KIRISH

Global iqlim o'zgarishi XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Agar bu jarayonni jilovlash bo'yicha o'z vaqtida chora-tadbirlar amalga oshirilmasa, atmosferadagi issiqxona gazlari emissiyasining ortishi natijasida global ekologik tahdidlar kuchayishi mumkin.

Global iqlim o'zgarishi — insoniyatning tabiat resurslaridan samarasiz foydalanishi va ekologik muvozanatga nisbatan beparvoligi natijasida yuzaga kelayotgan murakkab jarayondir. Globallashuv sharoitida ko'mir, neft va tabiiy gaz kabi uglevodorod yoqilg'ilarining keng miqyosda yoqilishi natijasida issiqxona gazlari — karbonat angidrid (CO_2) va azot oksidi (N_2O) atmosferaga ko'p miqdorda chiqarilmoqda.

Iqlim o'zgarishining ta'siri turli sohalarida sezilmoqda: u aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ichimlik suvi tanqisligini kuchaytiradi hamda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish jarayonini murakkablashtiradi.



Tabiiy yoki antropogen manbalardan hosil bo'ladigan karbonat angidrid, azot oksidi, metan, ozon, suv bug'lari va boshqa sintetik gazlar Quyosh energiyasini Yer atmosferasida tutib qoladi. Natijada "issiqxona effekti" yuzaga keladi va bu o'z navbatida Yer kurrasida global iqlim o'zgarishlariga sabab bo'ladi [1].

Shu bois, global iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash eng muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Dekarbonizatsiya jarayoni orqali energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilmoqda. Tadqiqotchilar bu jarayonni barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq deb baholaydilar.

Xalqaro tajriba.

Climate Action Tracker (2024) ma'lumotlariga ko'ra, 2045–2060-yillar oralig'ida dunyoning uchdan ikki qismi, jumladan G20 mamlakatlari uglerod neytralligiga erishishni maqsad qilgan. Harvard Business Review (2022) kompaniyalar darajasida uglerod chiqindilarini kamaytirish strategiyalarining samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan farq qilishini qayd etadi. Jahon iqtisodiy forumi (WEF, 2022)ning "Global Risks Report" hisobotida esa past uglerodli iqtisodiyot energiya xavfsizligi va yangi ish o'rinlari yaratilishida muhim omil sifatida ta'kidlangan.

Nazariy manbalar.

Rossiyalik olimlar "Декарбонизация экономики" (EG-Online, 2021) maqolasida dekarbonizatsiya energetika va ishlab chiqarishda texnologik modernizatsiya orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi. "Global iqlim o'zgarishlari inson faoliyati bois ro'y bermoqda" (UzA, 2023) manbasida esa inson faoliyatining issiqxona effektiga ta'siri va dekarbonizatsiya siyosatining ekologik ahamiyati yoritilgan.

Mahalliy tadqiqotlar.

S. N. Xashimova (2022, 2024) yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish masalalarini ilmiy tahlil qilib, iqtisodiyotni karbonsizlantirishda innovatsiyalar va energiya samaradorligini asosiy yo'nalish sifatida belgilaydi. Uning 2023-yildagi hamkorlikdagi tadqiqotlarida raqamlashtirish va ekologik monitoringning ahamiyati ta'kidlangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash jarayonining mohiyati, ahamiyati va amalga oshirish mexanizmlari tizimli tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi — global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish sharoitida barqaror rivojlanishga erishishda dekarbonizatsiya siyosatining o'zni va iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda analitik, qiyosiy, statistik va kontent tahlil metodlari qo'llanildi. Xususan, dunyo miqyosidagi Parij bitimi, Xalqaro energetika agentligi (IEA), Jahon iqtisodiy forumi (WEF), va Climate Action Tracker (CAT) kabi xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida iqlim siyosati va uglerod neytrallik strategiyalarining tahlili amalga oshirildi.

Shuningdek, dekarbonizatsiya jarayonining iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sirini o'rganishda taqqoslash usuli qo'llanib, G20 mamlakatlari va O'zbekistonning mavjud holati o'zaro solishtirildi. Statistik tahlil orqali CO₂ emissiyasi, qayta tiklanadigan energiya ulushi va yalpi ichki mahsulotdagi uglerod sig'iminining dinamikasi o'rganildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar va iqtisodiy tahlil nashrlari tashkil etadi. Ushbu manbalar orqali iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari — qayta tiklanadigan energiya manbalari, transportni elektrlashtirish, energiya samaradorligini oshirish, uglerod solig'i mexanizmlari va xalqaro hamkorlik kabi yo'nalishlar aniqlangan.

Tadqiqotda ilmiy umumlashtirish va tizimli yondashuv tamoyillari asosida iqtisodiyotni karbonsizlantirishning institutsional, texnologik va ijtimoiy jihatlarini o'rganilib, iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Global tahdidlarning oldini olish maqsadida iqlim o'zgarishlari bo'yicha Parij bitimi qabul qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadlaridan biri — dunyo mamlakatlari tomonidan chiqindilar miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirish majburiyatini olishdan iboratdir.



Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash — bu inson faoliyati natijasida hosil bo'ladigan uglerod (CO_2) va boshqa issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish jarayonidir. Mazkur jarayon ko'mir, neft va gaz kabi qazib olinadigan energiya manbalaridan voz kechib, ularning o'rniga quyosh, shamol, gidro va atom energiyasi kabi toza hamda barqaror energiya manbalariga o'tishni o'z ichiga oladi.

Dekarbonizatsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Iqlim xatarlarini kamaytirish. Issiqxona gazlari emissiyasini qisqartirish orqali ekstremal ob-havo hodisalari, dengiz sathining ko'tarilishi, ekotizimlarning o'zgarishi va global isish jarayonining salbiy ta'siri sezilarli darajada kamayadi.

2. Innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirish. Dekarbonizatsiya jarayoni energetika, transport va ishlab chiqarish sohalarida ilg'or texnologiyalar hamda innovatsion yechimlarni joriy etishni rag'batlantiradi.

3. Iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish. Kam uglerodli iqtisodiyotga o'tish qayta tiklanuvchi energiya sohasida yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, biznes faoliyatini kengaytirish va barqaror ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida energetika, transport, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi va moliya sohalarida iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda dunyo miqyosida CO_2 emissiyasi 36,4 milliard tonnaga yetgan. Ushbu chiqindilarning taxminan 75 foizi neft, ko'mir va gaz kabi qazib olinadigan yoqilg'ilarning yoqilishi natijasida hosil bo'lgan.

Shuningdek, 2020-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari jahon bo'yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 29 foizini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich avvalgi yillarga nisbatan sezilarli o'sishni ifodalaydi.

Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib uglerod neytralligiga erishish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalarining global energiya ishlab chiqarish tarkibidagi ulushi 70 foizdan oshishi zarur.

Demak, iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash — bu iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va barqaror energiya tizimiga o'tish jarayonini o'z ichiga oluvchi muhim strategik yo'nalishdir.

Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalashga erishishda quyidagi asosiy vositalar muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash asosiy vositalari		
1.	Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish	Energiya balansida quyosh, shamol, gidro va geotermal energiya ulushini oshirish.
2.	Energiya samaradorligi	Sanoat, transport va turar-joy sektorlarida uskunalarni yangilash va energiya tejovchi texnologiyalar hamda materiallardan foydalanish orqali energiya samaradorligini oshirish.
3.	Transportni elektrlashtirish	Elektr va gibrid transport vositalariga o'tish, infratuzilmani rivojlantirish orqali kam emissiyali jamoat transportini joriy etish.
4.	Barqaror qishloq xo'jaligi	Qishloq xo'jaligida yerga ishlov berishda organik o'g'itlardan foydalanishni minimallashtirish
5.	Uglerodli texnologiyalar	Atmosfera chiqarilayotgan uglerodlarni tutish va saqlash (CCS) texnologiyalarini ishlab chiqarish va joriy etish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarida ugleroddan foydalanish.
6.	Innovatsiyalarni rag'batlantirish	Sof texnologiyalar ishlab chiqarishga asoslangan tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash
7.	Iqtisodiy chora-tadbirlar	Uglerod emissiyasini kamaytirish uchun iqtisodiy rag'batlarni yaratadigan uglerod solig'i yoki emissiya savdosi tizimini joriy etish.
8.	Ta'lim va xabardorlik	Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash muhimligi haqida jamoatchilik xabardorligini oshirish
9.	Xalqaro hamkorlik	Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro shartnomalar va tashabbuslarda ishtirok etish
10.	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash	Dekarbonizatsiya siyosati va tashabbuslarini amalga oshirish uchun davlat yordamining institutsional mexanizmlarini shakllantirish



Dunyo mamlakatlarining uchdan ikki qismi, jumladan G20 mamlakatlari, 2045–2060-yillar oralig'ida uglerod neytralligiga erishishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar [2]. Shuningdek, dunyo miqyosidagi 2000 ta eng yirik kompaniyadan qariyb 30 foizi, ya'ni 700 dan ortiq yirik korxonalar ham ushbu maqsadga qo'shilgan [3].

Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash natijasida yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibidagi uglerod sig'imini kamaytirishga erishish mumkin. 2050-yilga borib, dunyoda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining kamida yarmi, ehtimol 70 foizgacha, qayta tiklanadigan energiya manbalari orqali ishlab chiqarilishi prognoz qilinmoqda. XXI asrning oxiriga kelib, "toza energiya" tizimiga to'liq o'tish jarayonining yakunlanish ehtimoli yuqori.

Yetakchi mamlakatlarda sanoat tarmoqlarida neft, gaz va ko'mirdan foydalanish hajmining qisqarishi yangi energetika siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu esa yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qiluvchi uzoq muddatli global tendensiyaning shakllantirishiga [4].

Xalqaro iqtisodiy baholashlarga ko'ra, agar global miqyosda 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishish choralari yetarli darajada amalga oshirilmasa, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari pasayishi ehtimoli mavjud. Biroq, bu jarayonni o'z vaqtida amalga oshirish natijasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va iqlim xavflarini minimallashtirish imkoniyatlari yaratiladi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash — bu dunyo mamlakatlarining barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash yo'lidagi eng muhim strategik qadamlardan biridir. Ushbu jarayon uglerod chiqindilarini kamaytirish, shuningdek, quyosh, shamol va gidroenergetika kabi kam uglerodli energiya manbalariga o'tishni o'z ichiga oladi.

Dekarbonizatsiya jarayoni — iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan global muammolarni bartaraf etish yo'lida samarali energiya siyosatini yuritish, sanoat, transport va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida texnologik va innovatsion yangilanishlarni amalga oshirish orqali kompleks yondashuvni talab etadi.

Past uglerodli iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki innovatsiyalarni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, toza energiya turlarini rivojlantirish va iqtisodiyotning barcha sohalarida barqaror o'sish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Iqtisodiyotni karbonsizlantirish jarayoni — bu faqat ekologik zarurat emas, balki yanada adolatli, farovon va raqobatbardosh jamiyatni shakllantirish imkoniyatidir. Dekarbonizatsiya siyosatini izchil amalga oshirish, tuzilmaviy va texnologik o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlash natijasida yuqori texnologiyali tarmoqlarda bandlik oshadi, atrof-muhit ifloslanishi kamayadi va yashil mahsulotlarning global bozoridagi ishtirok kengayadi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni dekarbonizatsiyalash ekologik va iqtisodiy foyda keltiruvchi, barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan milliy siyosatning ajralmas qismi sifatida qaralishi zarur. Bu yo'nalishda davlat, xususiyl sektor va fuqarolik jamiyatining hamkorlikdagi harakatlari kelajakda barqaror, raqobatbardosh va ekologik jihatdan xavfsiz iqtisodiy modelni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Глобал иқлим ўзгаришлари инсон фаолияти боис рўй бермоқда. (2023). O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). URL: <https://uza.uz/uz/posts/global-iqlim-ozgarishlari-inson-faoliyati-bois-roy-bermoqda>.
2. Climate Action Tracker. (2024). CAT Net Zero Target Evaluations. URL: <https://climateactiontracker.org>.
3. Harvard Business Review. (2022). Why Companies Aren't Living Up to Their Climate Pledges. URL: <https://hbr.org>.
4. Декарбонизация экономики. (2021). Экономика и жизнь (EG-Online). URL: <https://www.eg-online.ru/article/287725/>.
5. World Economic Forum (WEF). (2022). The Global Risks Report, 17th Edition. URL: https://www.weforum.org/reports/wef_the_global_risks_report_2022.pdf.
6. Хашимова, С. Н. (2022). Яшил иқтисодиёт – тараққиёт гарови. Тошкент.
7. Xashimova, S. N., et al. (2024). The Essence and Stages of Development of the Concept of "Green" Economy. International Journal of Scientific Trends, 3(6), 25–32.
8. Hashimova, S. N. (2022). Guaranteed Green Economy and Development. Экономика и социум, 4–1(95), 61–64.
9. Xashimova, S. N., va boshq. (2023). Raqamlashtirish va iqtisodiyotni ta'minlashda innovatsion yondashuvlar. T., 3, 23–26.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>